



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-mart

112-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2025-yil 17-yanvardagi 17-son qarori ijrosi haqida”gi 102-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Tumanning barcha hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish, ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qismlaridan foydalangan holda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ushbu jarayonni yanada tartibga solish, mavjud ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qismlari hisobini yuritish, ko‘p kvartirali uylarning boshqaruv organlari tomonidan uylarning yerto‘la qismlarini ijaraga berishda to‘lanadigan majburiy badal va to‘lovlarni amalga oshirish jarayoni shaffof bo‘lishini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2025-yil 17-yanvardagi 17-son va Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 102-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2025-yil 17-yanvardagi 17-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 102-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 648-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilganligi;

ko‘p kvartirali uylarning yerto‘lalari jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanishga bershilganda, ijara uchun to‘lovlar hisobini “Mening uyim” billing tizimida yuritish belgilanganligi;

ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasini ijaraga berishda ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkka bo‘lgan huquqlarni ushbu joylar mulkdorlarining nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish belgilanganligi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda “UZCAD”va “Mening uyim” tizimlarini integratsiya qilgan holda, ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlarining

nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilgan umumiy mol-mulk va har bir ko'p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkalari haqidagi;

Soliq qo'mitasi bilan birgalikda Soliq qo'mitasining tegishli elektron tizimini "Mening uyim" billing tizimiga integratsiya qilish orqali boshqarish organlarining umumiy mol-mulkdan foydalanuvchilari bilan ijaraga yoki tekin foydalanishga berish to'g'risida tuzilgan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yishi;

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi 2025-yil yakuniga qadar ko'p kvartirali uylarning umumiy mol-mulk va yerto'la haqidaagi elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirishi va "Mening uyim" billing tizimiga kiritilishini ta'minlash belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ko'p kvartirali uyning yerto'lasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2025-yil 17-yanvardagi 17-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov